ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2023

3/3-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

3/3-сан *2023*

июнь-июль

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭЩАНОВА

Yuldasheva D. K. Methods of using modern pedagogical technologies in the development of communicative competence of students of the tourism direction ... 340
Tolipova M. S. The technology of «Time management» in the professional and personal growth of students ... 346

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Abdullayeva M. S. Texnologik ta'lim darslarini o'qitishning zamonaviy metod va vositalari ... 351
Karshiboyeva G. Q. O'zbekiston respublikasida inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilish masalalari hamda turizmning rivojlanishi ... 355

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Maxsetova M. M. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarini shakllantirish muammolari ... 360
Eshniyozov U. A. Talabalarning eksperimentlarni ko'nikmalarni zamonaviy interaktiv dasturiy vositalar asosida rivojlantirish metodikasi ... 367
Рахматов С. С. Эффективность использования виртуальных лабораторных стендов в обучении физики ... 376

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Маденова Н. А. Баслаўыш класс оқыўшыларын руўхыйлыққа ҳәм әдеп-икрамлылыққа тәрбиялаўдың әҳмийети ... 382
Nurıllaeva S. A. Baslawısh tálimde oqıwshılardıń sóylew kompetenciyaların innovacion texnologiyalar tiykarında qáliplestiriw ... 387
Мәмбетназарова Ҳ. Оқыўшыларда китап қумарлық мәдениятын қәлиплестириў ... 391
Iminova D. N. Zamonaviy sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchilariga kitobxonlikni targ'ib qilish – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ... 395
Xolmirzayeva G. B. Maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan katta yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyalari ... 402
Ахмедова З. М. Билиш жараёнларини ривожлантириш асосида бошланғич синф ўқувчиларининг ёзув бузилишини олдини олиш ... 408
Xodjaniyazova R. Boshlang'ich sinf darslarida interfaol uslublardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ... 415
Bekchanova F. D. Sensor tarbiya orqali bolalar sensomotorikasini rivojlantirish ... 421
Amangeldiyeva A. R. Tarbiyachilarga "Avesto"da bolalarni axloqiy tarbiya berish masalalarini o'rgatish ... 426
Raximberganova M. R. Tarbiyachining bolalarda bilish jarayoni indikatorlarini rivojlantirishga doir ijodiy yondashuvi ... 431
Xushboqova G. R., Bazarov S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning pedagogik va psixologik xususiyatlari ... 438
G'afforova X. Ya. STEAM – texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati sifatida ... 445
Xurramova L. A. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslariga "sinf ichida sinf shaklida tashkil qilish" metodi orqali kreativ yondashish ... 455
Saidova P. M. 1-4-sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish mazmuni ... 455
Самандарова Н. И. Бошланғич синф ўқувчиларини мулоқот асосида инновацион бошқариш босқичлари ... 459
Hamzayeva Z. Boshlang'ich ta'lim tizimida orfografiya o'qitishning nazariy asoslari ... 468
Shabbazova D. R. Shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishning psixologik-pedagogik omillari ... 472

SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI

Shabbazova D. R.
Termiz davlat pedagogika institute o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so‘zlar: qadriyat, tarbiya, xulq-atvor, shaxs, ziddiyat, o‘quv faoliyat, psixologik-pedagogik.

Ключевые слова: ценность, воспитание, поведение, личность, конфликт, воспитательная деятельность, психолого-педагог.

Key words: value, upbringing, behavior, personality, conflict, educational activity, psychological-pedagogical.

Kirish. Har bir kishi ehtiyojlar to‘plamiga ega bo‘lib, ular inson faoliyati va xulq-atvorining dastlabki stimullaridir. Ehtiyoj – bu mavjud va inson uchun zarur bo‘lgan narsalarning nomuvofiqlik holatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu inson nimani xohlashi, nimaga muhtojligi va haqiqatdagi narsalar o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Bunday holat odamni ushbu qarama-qarshilikni yo‘q qilish uchun choralar ko‘rishga undaydi, u atrofdagi voqelikdan o‘z ehtiyojini qondira oladigan, ziddiyatli vaziyatni hal qiladigan ob’ektni izlay boshlaydi. Bunday ob’ekt har qanday narsa bo‘lishi mumkin: masalan, oziq-ovqat, agar odam och bo‘lsa (oziq-ovqatga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj) yoki jamoaning ma’qullashi, agar inson tan olinishi, o‘zini o‘zi tasdiqlash zarurligini his qilsa va boshqalar. Qadriyat yo‘nalishii u yoki bu qadriyatlarga yo‘nalganlik sifatida tavsiflanadi. Yo‘naltirish jarayonining quyidagi bir-biriga tutash fazalari aniqlangan: shaxsiy qadriyatlarni o‘zlashtirish; o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni o‘zgartirish: shaxsning o‘z-o‘zini loyihalashi va o‘z-o‘zini bashorat qila olishi.

Qadriyatga yo‘nalganlik shaxs yo‘nalganligining mazmunli tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi. Shhu bilan birga, qadriyatli yo‘nalganlik sub’ekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liqlikda atrof-borliqqa sub’ektning bahosi sifatida qaraladi.

Qadriyatli yondashuvlar axloqiy ideallarda o‘z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko‘rinish hosil qiladi. Ideallar o‘zida

belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko‘ppog‘onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga etkazadi.

Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Yuzaga kalgan ziddiyatda o‘z navbatida, biri boshqasining o‘rniga qurbon bo‘ladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Axloqiy ideallar, o‘z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o‘zligiga to‘g‘ri keladi.

Inson ehtiyojini qondira oladigan har qanday ob’ekt, jarayon yoki hodisa uning uchun qadrlidir. Qadriyatlar yo‘nalishlari insonning u boshdan kechirayotgan ehtiyojlari xususiyatiga qarab ma’lum qadriyatlarga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Muayyan qadriyatlarga e’tiborni qaratgan holda, inson o‘z xatti-harakatlarini ushbu qadriyatlarning xususiyatiga qarab quradi. Agar inson moddiy, moliyaviy farovonlikka (qadriyatga) kuchli ehtiyoj sezsa, u shunday farovonlikka erishishga harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar shakllanishi muammosi ko‘p jihatli bo‘lib, u falsafiy-sotsiologik (S.F.Anisimova, A.G.Zdravomislova, V.I.Sagatovskaya, V.P.Tugariova, L.P.Fomina, M.I.Babneva, O.I.Zotova, V.L.Ossovskiy, Yu.Pismak, P.I.Smirnov, V.A.Yadov va boshqalar), shuningdek, psixologik-pedagogik ishlar (B.G.Anan’ev, G.E.Zalesskiy, A.N.Leontev, V.N.Myasiщev, S.L.Rubinshteyn, E.A.Nesimova, Ye.N.Shiyanova, G.I.Xukina va boshqalar) da talqin etilgan. Bu tadqiqotlarda qadriyatlar muammosining xilma-xil jihatlari ko‘rib chiqilgan, “qadriyat” tushunchasining o‘ziga ta’riflar berilgan, ularning turlari va tuzilishi tahlil qilingan, rivojlanish darajalari, tarkib topishi xususiyatlari masalasi ko‘tarilgan. Har qanday kishi o‘ziga xos qadriyatlar yo‘nalishlariga xos bo‘lgan individual xususiyatga ega. Qadriyatga yo‘naltirish insoniyatning jamiyatdagi xulq-atvorining eng muhim regulyatori bo‘lib, uning o‘ziga, atrofdagi odamlarga, dunyoga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Qadriyatlar yo‘nalishlari inson ehtiyojlariga asoslanadi.

Ehtiyoj va uning shaxs kamolotidagi o‘rni haqida psixologlar turlicha ta’rif berganlar. Jumladan, psixolog D.N.Uznadze “... ehtiyoj tushunchasi ... tirik organizm uchun zarur bo‘lgan va ayni paytda qo‘lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli”, M.S.Kagan, A.V.Margulis, Ye.M. Etkindlar “ehtiyoj – bu kerakli narsalarning yetishmaslik oqibati”, V.A.Yadov “ehtiyoj – inson shaxsi va organizm faoliyati uchun kerak bo‘lgan zarurat va yetishmovchilik mahsuli”, L.I.Bojovich “ehtiyoj – individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan zarurat”, A.V.Petrovskiy “ehtiyoj – jonli mavjudot hayot

kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir", deb ta'rif berganlar.

L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, E.Eriksonlarning tadqiqotlari asosida, biz ushbu yoshdagi o'quvchilarning qadriyatlarga nisbatan sezgirligi, shu jumladan, a) ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga nisbatan sezgirligi: ularda aqliy jarayonlarning ixtiyoriyligi, bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyati, ichki harakatlar rejasi, b) muvaffaqiyatga erishish uchun ongli maqsad va xatti-harakatlarni ixtiyoriy tartibga solish sifatida esa: tajribalarni umumlashtirish qobiliyati, aks ettirish, axloqiy his-tuyg'ularni intensiv shakllantirish, kattalarga cheksiz ishonch, o'z qadr-qimmatini anglash, kompetentlilik hissi, bilish ehtiyojlarining ustunligi, o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, o'yin va mehnatni farqlash qobiliyati kabi yosh xususiyatlariga bog'liq deb hisoblaymiz.

Tahlil va natijalar. Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, xulq-atvor - me'yor sifatida, qadriyatli munosabat - u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi. Shuning uchun tarbiya ijtimoiy- tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga uyg'otishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg'otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikning zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o'z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini tushina bilsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to'g'ri va o'z vaqtidagi nazorat, o'z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo'ladi. Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, interiorizatsiya eksteriorizatsiya hamkorligida amalga oshiriladi - muhitni yangi ob'ektlarni yaratish yo'li bilan ijodiy o'zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs qadriyatli munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

Xozirgi kunda faqat o‘tmish bilan bog‘liq hodisalarigina emas, balki yangi davr boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, mustaqillik sharoiti va imkoniyatlari asosida shakllanayotgan ijtimoiy-ma’naviy hodisalar ham qadriyat deb atalmoqda.

Olima M.O.Inomovaning talqiniga ko‘ra, - “Qadriyat- bu inson yoki jamiyatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatlar bo‘lib, ular hayotga qimmatdorlik nuqtai-nazaridan yondashishga asos bo‘la oladi. Umuman qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan kishi ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma’naviy boyliklardir”.

Qadriyatlar mazmuniga ko‘ra siyosiy, huquqiy, diniy, ma’naviy, axloqiy, umummadaniy, umuminsoniy, turmush va mehnat qadriyatlari kabi turlarga bo‘linadi. Umummadaniy qadriyatlar turiga mansub bo‘lgan pedagogik, didaktik, ta’limiy, tarbiyaviy qadriyatlar atamalari pedagogika fanida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Didaktik ta’limiy qadriyatlar atamasi mazmunini yoritib, pedagog olim Sh.Mardonov unga shunday t’rif beradi: “Ta’limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy pedaogik axamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar majmuidir”.

Qadriyatlarni belgilashning asosiy pedagogik omilini ular haqidagi bilim tashkil qiladi. Ta’lim predmetlari tarkibiga kiritilgan qadriyatlar haqidagi bilim bolaning shaxsiy, ijtimoiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar haqidagi g‘oyalari doirasini kengaytirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim mazmunining majburiy minimumini tahlil qilish, unda mavjud bo‘lgan boshlang‘ich maktab yoshida shaxsning ma’naviy ehtiyojlarini rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yo‘nalish (inson, bilim, ijodkorlik, mehnat, oila, Vatan, dunyo, madaniyat) kabi integral tushunchalar hisoblangan ma’naviy qadriyatlar to‘plamini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi. Mohiyat, qadriyatlarni anglash, ularni izlash va baholash shaxsning ma’naviy va amaliy tajribasida sodir bo‘ladi. Qadriyatlar dunyosi bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan bola, bu dunyoni rivojlantirish, o‘zlashtirish va o‘zgartirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sub’ektga aylanadi.

Demak, o‘quvchilarning shaxsiy funksiyalarini ro‘yobga chiqaradigan faoliyat qadriyatlarni o‘zlashtirishning ikkinchi pedagogik omili hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan qadriyatlarni, shu jumladan,

axloqiy qadriyatlarni belgilashda uchinchi muhim pedagogik omil – bu bolani tashqaridan (boshqa odamlar tomonidan) baholash. Insonparvar psixologiya nuqtai nazaridan shaxsning individual rivojlanishi jarayonida o‘z qadr-qimmatini qadrlash ma’naviy ehtiyojlarning paydo bo‘lishidan oldin: o‘z qadr-qimmati ehtiyojlaridan kelib chiqadi, bu esa o‘z navbatida, boshqa odamlarning sevgisi va tan olinishi ehtiyojlariga asoslanadi. Ontogenezdagi o‘z-o‘zini hurmat qilish, shaxsning o‘ziga xos baholari va boshqa odamlarning shaxsni baholashlari asosida quriladi.

O‘z-o‘zini hurmat qilishning qadriyatlarni belgilashga ta’siri (o‘zini o‘zi qabul qilish) uning asosiy funksiyalari bilan bog‘liq: birinchi navbatda, bu shaxsning ichki muvofiqligiga erishishga yordam beradi, ikkinchidan, individual talqinning ijobiy xususiyatini belgilaydi, uchinchidan, bu ijobiy kutishlarning manbai.

Tarbiya qadriyatlar yo‘nalishlari, g‘oyalari, qadriyatlari va ideallarini shakllantirishning juda muhim omilidir. Tarbiyaning o‘ziga xos tomoni maktab yosh avlodni tarbiyalash tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida ta’limning har bir bosqichida ustunlik qiladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida axloqning oddiy me’yorlarini o‘zlashtiradilar, turli vaziyatlarda ularga rioya qilishni o‘rganadilar. Ularda munosabat atrofdagi dunyoning moddiy ob’ektlariga (oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliya, uy-joy va boshqalar kabi) yo‘nalish bilan bir qatorda, inson hissiy-ahloqiy qadriyatlari deb ataladigan narsalarga ham yo‘naltirilgan bo‘ladi. Jumladan, bola uchun quvonch va hayajon uyg‘otadigan yangi narsalarni sotib olishdan zavqlanish bolaning narsalarga ega bo‘lish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qadriyat sotib olingan narsaning o‘zi emas, balki odam uni izlash va sotib olish paytida boshdan kechiradigan hissiy holatdir. Hissiy qadriyatlar komplekslariga nisbatan bunday yo‘nalishlar shaxsning hissiy yo‘nalishi deb ataladi.

Olimlar qadriyatlar yo‘nalishlari inson xulq-atvori va uning maqsadga muvofiq faoliyati davomida o‘zgarib borishini aniqladilar. Ushbu o‘zgarishlarning tabiati kishi ishtirok etadigan faoliyatning xususiyatlariga bog‘liq.

Qadriyatlar – bu shaxsning ijtimoiy xulq-atvori bilan tartibga solishning eng yuqori darajasini belgilaydigan shaxs tuzilmasining yadrosi sifatida uning yana bir muhim funksiyasi – bu prognostik funksiya, chunki ularning asosida hayotiy pozitsiya va hayot dasturlarini ishlab chiqish, kelajak tasvirini yaratish va shaxsiy rivojlanish istiqbollari amalga oshiriladi. Binobarin, qadriyatlar nafaqat shaxsning hozirgi holatini, balki uning kelajakdagi holatini ham tartibga soladi; ular nafaqat uning hayotiy tamoyillarini, balki uning maqsadlari, vazifalari,

ideallarini ham belgilaydilar. Shaxsning nima qilish kerakligi haqidagi g‘oyasi vazifasini bajaradigan qadriyatlar ma’lum bir maqsadga erishish uchun shaxsning hayotiy qobiliyatlarini safarbar qiladi.

Insonni madaniyat bilan tanishtirish, avvalo, individual qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayonidir. Madaniyatni o‘zlashtirish jarayonida shaxs shaxsga aylanadi, chunki inson – bu shaxs bo‘lib, uning xususiyatlari uning jamiyatda to‘laqonli a’zo sifatida yashashiga, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishiga va faoliyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Odob-axloq, ta’lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlar bebaho milliy meros, ma’naviy boylikdir. Ana shu milliy qadriyatlarni tiklash, ulardan foydalanish, yosh avlodga yetkazish mustaqillikni mustahkamlashda, unga qarshilik qiladigan har qanday kuchga zarba berishda, o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda dasturi amal bo‘ladi.

Xulosa. Shunindek, milliy-ma’naviy merosning tarkibiy qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiyoti yosh avlodning el-yurtga, ona zaminga cheksiz mehrini oshirishda, milliy g‘ururini o‘stirishda shak-shubhasiz muhim tarbiyaviy vosita xisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ajdodlarimizning milliy iftixor tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishga oid tarixiy tajribasi yorqin aks etib turadi. Folklor asarlari yoshlar o‘rtasida axloqiy tarbiya sifatini oshirishga, kelajak avlodni ma’naviy barkamol kilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuni hisobga olib, milliy madaniyatimizning eng qadimiy va hayotbaxsh an’analarini o‘zida mujassam etgan og‘zaki badiiy ijodi jumladan, ertaklar, maqollar, rivoyatlar, masallardan shaxsiy qadriyatli munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojievalar tomonidan 2019 yilda yaratilgan «O‘qish kitobi» darsligida keltirilgan «Ilm omonoati» rivoyati, Halollik», «Donishmand yigit» o‘zbek xalq ertaklari, «Ahillik - ulug‘ baxt» qirg‘iz xalq ertagi, «Donishmand ustoz», «Najmiddin Kubro» kabi rivoyatlar, shuningdek, S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariev, Z.Dolimovlar tomonidan 2020 yilda yaratilgan «O‘qish kitobi» umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinflari uchun darsligida keltirilgan «Davlat», «Ziyrak uch yigit» o‘zbek xalq ertaklari bilan o‘quvchilarni tanishtirish jarayonida shaxsiy qadriyatli munosabatni qo‘llanilishi ham o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, insonning xulq-atvorini tartibga soluvchi shaxsning qadriyat yo‘nalishlari ko‘p jihatdan inson ishtirok etadigan faoliyatning tabiatiga va uning hayoti davomida o‘zgarishiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz)

2. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).

3. M.O. Inomova. “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”. T.: 2000 y.

4. M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiyeva. «O’qish kitobi» darsligi. Toshkent, 2019.

5. S.Matchonov, A.SHojalilov, X.G’ulomova, SH.Sariyev, Z.Dolimov. «O’qish kitobi» darsligi. Toshkent, 2020.

РЕЗЮМЕ

Qadriyatli mazmunga ega ta’limda shaxsning xulq-atvori mo‘ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo‘nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, xulq-atvor - me’yor sifatida, qadriyatli munosabat - u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ko‘rinishda borliqni bilish va shaxsiy qadriyatli yondashuvni ma’naviy boshqarilishi yo‘naltiriladi hamda mazmunan shaxs xatti-harakati va xulq-atvorini belgilab beradi. Shuning uchun tarbiya ijtimoiy- tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko‘rilishi mumkin.

РЕЗЮМЕ

Ценностное образование ориентируется на поведение человека, которое определяет его гуманистическую направленность и служит основанием для ценностной оценки. Мировоззрение выступает как контекст концептуальной интерпретатsiи ценностных отношений личности, поведения как нормы и ценностных отношений как инварианта системы. Таким образом направляется духовное управление познанием существования и личностно-ценностный подход, а содержание определяет поведение и установки личности. Поэтому образование можно рассматривать как процесс интериоризатsiи социально-организованных общечеловеческих ценностей.

SUMMARY

Valuable education focuses on an individual’s behavior, which determines his or her humanistic orientation and serves as a basis for value assessment. The worldview emerges as the context of the conceptual interpretation of the value relationship of the individual, the behavior as the norm, and the value relationship as the invariant to the system. In this way, the spiritual management of the knowledge of existence and the personal value approach is directed, and the content determines the behavior and attitudes of the individual. Therefore, education can be seen as a process of internalization of socially-organized universal values.